# "O‘zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan 2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejalari ijrosi to‘g‘risida

# TAHLILIY MA'LUMOT

| T/r | Topshiriq raqami | Topshiriq mazmuni | Topshiriq muddati | Amalga oshirilgan ishlar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | 6.v.3-band. | 2025-yilda aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida: v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta'lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 o‘quv yilidan: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetiga biriktiriladigan "yashil texnikumlar" faoliyati yo‘lga qo‘yilsin. | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>a) Ekologiya yo‘nalishida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublikadagi har bir hududdan (jami 14 ta) 1 tadan texnikum belgilandi.<br>b) Texnikumlarni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetiga (Green University) biriktirish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Green University faoliyatini yanada rivojlantirish" qarori loyihasi (ID-4591) doirasida Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligiga taqdim etildi.<br>v) Vazirlik buyrug‘i bilan Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University)ga kasbiy ta'lim tashkilotlar "Yashil texnikumlar" biriktirildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025 yil 20-iyundagi 229-son buyrug‘i.*<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, "YO‘L XARITASI", CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARNING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Green University faoliyatini yanada rivojlantirish" qarori loyihasi (ID-4591) ishlab chiqildi.**<br>**Qaror bilan:** "Green University"ni rivojlantirish, iqlim o‘zgarishi sohasida kadrlar tayyorlash, hududiy texnikumlarni universitetga biriktirish, o‘quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish belgilangan.<br>**Qaror ijrosi yuzasidan:**<br>– 14 ta hududiy texnikum tanlab olindi va ular "Green University"ga biriktiriladi;<br>– Markaziy Osiyo iqlim tahlili sohasida maxsus ta'lim tizimi asoslari yaratiladi. |
| 2. | 6.v.4- | 2025-yilda aholining salomatligini | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | band. | yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida: v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta’lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 o‘quv yilidan: tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishlaridagi davlat oliy ta’lim tashkilotlarida “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fani va o‘quv dasturlari kiritilsin. | | *TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Yetakchi davlat oliy ta’lim tashkilotlari sifatida tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Milliy universiteti, muhandislik-texnika yo‘nalishi bo‘yicha Toshkent davlat texnika universiteti, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishi bo‘yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishlari o‘quv rejalariga jami 120-150 soat, shundan o‘quv auditoriyaga 60 soat, mustaqil ta’limga 60-90 soat (4-5 kredit) miqdorda “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fani kiritildi, fanning o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va ta’lim jarayoniga tatbiq etildi.<br>Yetakchi davlat oliy ta’lim tashkilotlari sifatida tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Milliy universiteti, muhandislik-texnika yo‘nalishi bo‘yicha Toshkent davlat texnika universiteti, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishi bo‘yicha Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishlari o‘quv rejalariga jami 120-150 soat, shundan o‘quv auditoriyaga 60 soat, mustaqil ta’limga 60-90 soat (4-5 kredit) miqdorda “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fani kiritildi, fanning o‘quv dasturlari ishlab chiqildi va ta’lim jarayoniga tatbiq etildi.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARNING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i** bilan tasdiqlangan ta’lim yo‘nalishlar malaka talablari asosida o‘quv dasturlar ishlab chiqildi.**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug‘i** bilan tasdiqlangan ta’lim yo‘nalishlar malaka talablari asosida o‘quv dasturlar ishlab chiqildi. |
| 3. | 6.v.5-band. | 2025-yilda aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida: v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta’lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 o‘quv yilidan: oliy ta’limda grant o‘rinlarini bosqichma-bosqich oshirish hisobiga | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF–81-son Farmoniga muvofiq 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etilgan.<br>Farmonga muvofiq 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda davlat buyurtmasi 25 mingtaga yetkazilsin. | | Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan shakllantiriladigan oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan talab prognoziga muvofiq ravishda 4 yillik davr uchun tasdiqlanishi belgilangan.<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 18-iyuldagi F-43-son Farmoyishining 1- va 2-ilovalari bilan 2025/2026-o‘quv yili va kelgusi uch o‘quv yilida davlat oliy ta’lim tashkilotlariga bakalavriat hamda magistraturasiga kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilish parametrlari tasdiqlandi.<br>Ushbu qabul parametrlaridagi davlat oliy ta’lim tashkilotlarini bakalavriat hamda magistratura yo‘nalishlarining “Aniq va tabiiy fanlar”, “Muhandislik-texnika”, “Xizmatlar”, “Tibbiyot” sohalaridagi **2025/2026-o‘quv yilida davlat granti buyurtmasi jami 26 752 ta**ni tashkil etdi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi **PF–81-son** Farmoniga muvofiq 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etilgan. |
| 4. | 6.v.7-band. | 2025-yilda aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida:v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta’lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 o‘quv yilidan: respublikaning har bir tumanida (shahrida) bosqichma-bosqich inklyuziv ta’lim talablariga javob beradigan kamida bittadan umumta’lim maktabi faoliyati tashkil etilsin. | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF–16-son Farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash yuzasidan **Vazirlikning nazorat-rejasi tasdiqlandi**.<br>b) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida shakllantiriladigan ishchi guruhga Vazirlikning Kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirish departamenti boshqarmasi bosh mutaxassisi **Qurolov Qobiljon Kulmanovich nomzodi tavsiya etilgan.**<br>v) Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan hamda hududiy hokimliklar bilan birgalikda har bir **208 ta** tuman(shahar) da tashkil etilgan inklyuziv maktablar **ro‘yxati shakllantirildi.**<br>*Tanlangan maktablarning **177 ta**sida, jumladan,* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | *Qoraqalpogʻiston Respublikasining 17 ta tumanidan 14 tasida,*<br>*Andijon viloyatining 16 ta tumanidan 11 tasida,*<br>*Buxoro viloyatining 13 ta tumanidan 11 tasida,*<br>*Jizzax viloyatining 13 ta tumanidan 10 tasida,*<br>*Qashqadaryo viloyatining 16 ta tumanidan 14 tasida,*<br>*Navoiy viloyatining 11 ta tumanidan 9 tasida,*<br>*Namangan viloyatining 14 ta tuman (shahar) larida,*<br>*Samarqand viloyatining 16 ta tumanidan 14 tasida,*<br>*Sirdaryo viloyatining 11 ta tumanidan 7 tasida,*<br>*Surxondaryo viloyatining 15 ta tumanidan 14 tasida,*<br>*Toshkent viloyatining 22 ta tumanidan 15 tasida,*<br>*Fargʻona viloyatining19 ta tumanning barchasida,*<br>*Xorazm viloyatining 13 ta tumanida,*<br>*Toshkent shahrining 12 ta tumanida 1 tadan maktablar tanlanib ularda pandus, harakatlanish yoʻlaklari, ichki hojatxonalar tashkil etilib, nogironligi boʻlgan shaxslarning harakatlanishi uchun qulay muhit yaratildi va* ***inklyuziv ta'lim talablariga moslashtirildi.***<br>g) Inklyuziv sinf tashkil etilgan har bir maktabda maxsus inklyuziv xonasi tashkil etilib, kapital rekonstruksiya qilindi. Maxsus uqalash xonalar hamda ichki hojatxona tashkil etildi. Inklyuziv ta'lim uchun maxsus oʻquv qurollari va metodik koʻrgazmalar bilan ta'minlanib, **zarur jihozlar bilan jihozlandi.**<br>***Asos:*** *Vazirlikning 2025-yil 20-iyundagi 02/11-1854-son xati* |
| 5. | 6.v.8-band. | 2025-yilda aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasida: v) inson salohiyatini yuksaltirish, ta'lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 oʻquv yilidan: "Kambagʻallikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 3,5 ming kambagʻal oilalar farzandlarini tayyorlab, oliy ta'lim tashkilotlariga belgilangan tartibda grant asosida qabul qilish ishlari tashkil etilsin. | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>"Kambagʻallikdan farovonlik sari" dasturi doirasida 3,5 ming kambagʻal oilalar farzandlari uchun oliy ta'limga kirishga amaliy koʻmak koʻrsatish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'lim tashkilotlarida abituriyentlar, jumladan, kambagʻal va kam ta'minlangan oilalarning bitiruvchi sinfdagi farzandlari uchun tayyorlov kurslarini tashkil etish toʻgʻrisida" 2025-yil 17-yanvardagi **18-son** buyrugʻi tasdiqlandi.<br>Buyruqqa muvofiq davlat oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallaridagi mavjud moddiy-texnik baza negizida 2025-yil 1-fevraldan boshlab, oʻqish muddati6 oydan 10 oygacha boʻlgan tayyorlov kurslari tashkil etilishi belgilandi.<br>Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining "Kambagʻal oilalar reestri"ga kiritilgan oilalarning 17-19 yoshli farzandlari toʻgʻrisidagi ma'lumotlari asosida Maktabgacha va maktab ta'limi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | vazirligi tomonidan shakllantirilgan maktabbay ro‘yxat (11-XDFU-son,07.01.2025-y.) asosida 2024/2025 o‘quv yili bo‘yicha kambag‘al va kam ta’minlangan oilalarning bitiruvchi sinfdagi **6085** nafar farzandlari buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq oliy ta’lim muassasalari rektorlariga biriktirildi.<br>Buyruqning 2-ilovasi bilan tayyorlov kursi tinglovchilari uchun umumta’lim fanlari o‘quv dasturi namunasi tasdiqlandi va 2024/2025 o‘quv yilida kambag‘al va kam ta’minlangan oilalarning bitiruvchi sinfdagi **6085** nafar farzandlari uchun **tayyorlov kurslari tashkil etildi.**<br>Tayyorlov kurslarida kambag‘al va kam ta’minlangan oilalarning bitiruvchi sinfdagi farzandlari bepul asosda o‘qitilib, o‘qitish xarajatlari fanlar bo‘yicha tayyorlov kurslari tashkil etilgan oliy ta’lim tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplab borildi.<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi **149-son** qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi:<br>bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga ajratilgan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga nisbatan **10 foizgacha** bo‘lgan miqdorda Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadigan toifadagi abituriyentlar uchun davlat granti asosidagi qo‘shimcha qabul parametrlari ajratiladi;<br>belgilangan toifadagi abituriyentlar uchun ajratiladigan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari kesimidagi taqsimoti O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.<br>2025/2026-o‘quv yilidan boshlab, kambag‘al va kam ta’minlangan oila farzandlarining 3,5 ming nafarini davlat granti asosida oliy ta’lim bilan qamrab olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayoni 19-ilovasi bilan 2025/2026-o‘quv yili uchun “Kambag‘al oilalar reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlariga o‘n foizli qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari kesimidagi **3550** ta ta’lim grantlari kvotasi tasdiqlandi.<br>2025/2026-o‘quv yili kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra **2138** ta “Kambag‘al oilalar reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari talabalikka qabul qilindi.<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF–81-son Farmoniga muvofiq 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etilgan.<br>Farmonga muvofiq 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan shakllantiriladigan oliy ma’lumotli kadrlarga bo‘lgan talab prognoziga muvofiq ravishda 4 yillik davr uchun tasdiqlanishi belgilangan.<br>6,3 ming nafar kambag‘al oilalar farzandlarini ro‘yxati shakllantirilib, Vazirlikning 2025-yil 17-yanvardagi 18-son buyrug‘i bilan respublika oliy ta’lim tashkilotlari rektorlariga biriktirildi va ularga bepul tayyorlov kurslari tashkil etildi. |
| 6. | 9.1-band. | Aholi, ayniqsa yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida 2025-yil 1-maydan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Toza qo‘llar” dasturi amalga oshirilsin va aholi orasida keng targ‘ib qilish ishlari tashkil etilsin: a) barcha sog‘liqni saqlash va ta’lim muassasalarida:<br>qo‘l yuvish joylarini zarur sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta’minlash; sanitariya-gigiyena xonalarining texnik holatini yaxshilash, yangi qurilayotgan muassasalarda ularni binoning ichki qismida joylashtirish; yil davomida birinchi navbatda qo‘l yuvish va antiseptik vositalarni xarid qilishni nazarda tutish; b) barcha turdagi jamoat sanitariya-gigiyena xonalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlarini sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta’minlash majburiyatini kiritish. | 01.11.2025 | ***I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:***<br>a) Barcha Oliy ta’lim muassasalarida “Toza qo‘llar” dasturi amalga oshirildi. Farmonning 9.1-bandida ijrosini hamda “Toza qo‘llar” dasturi ijrosining ta’lim muassasalaridagi holatini nazorat qilish maqsadida vazirlikning 2025-yil 22-sentabrdagi 370-sonli buyrug‘i tasdiqlandi. Buyruq bilan ishchi guruh va o‘rganish savolnomasi tasdiqlanib, joriy yilning 6-9-oktayabr kunlari jami **115 ta** oliy ta’lim muassasasi hamda **78 ta** kasbiy ta’lim muassasalarida o‘rganish ishlari olib borildi. O‘rganish jarayonida oliy ta’lim muassasalaridan **497 ta** o‘quv binosi, **313 ta** talabalar turar joylaridagi **21 021 ta** qo‘l yuvish uskunasi, **18 721 ta** hojatxonalar ko‘rib chiqildi.<br>O‘rganish jarayonida ta’lim muassasalarining sanitariya-gigiyena xonalari (*hojatxonalar, dush va boshqalar*)ning texnik holati, ta’lim muassasalarini qayta inventarizatsiyadan o‘tkazilganligi va inventarizatsiya natijalariga ko‘ra loyiha-smeta hujjatlarining ishlab chiqilganligi, qurilayotgan yangi muassasalar binolarining ichki qismiga sanitariya-gigiyena xonalarini (*hojatxonalar, dush va boshqalar*) joylashtirish bo‘yicha loyihaning tasdiqlanganligi, ta’lim muassasalarda yil davomida qo‘l yuvish va antiseptik vositalarni xarid qilishni rejalashtirish va unga ajratilgan mablag‘lar holati o‘rganildi.<br>Shuningdek, 2025-yilda yangi qurilib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan 17 ta talabalar turar joyida (8150 o‘ringa mo‘ljallangan) sanitariya-gigiyena xonalari binoning ichki qismida joylashtirish bo‘yicha loyihalari tasdiqlangan. Ta’lim muassasalarida qo‘l yuvish va antiseptik |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | vositalarni xarid qilish uchun oliy ta’lim muassasalaridan 2025-yil (shu muddatiga ko‘ra) 550,224,420 mln so‘m mablag‘, kasbiy ta’lim tashkilotlari uchun ham 4,9 mlrd so‘m ajratildi<br>b) Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan barcha ta’lim muassasalarida qo‘l yuvish joylari zarur sanitariya-gigiyena vositalari bilan ta’minlandi, ta’lim muassasasidagi hamda talabalar turar joyidagi sanitariya-gigiyena xonalari texnik holati yaxshilandi, yangi qurilayotgan muassasalarda sanitariya-gigiyena xonalari binoning ichki qismida joylashtirish bo‘yicha rejalar belgilandi.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 1-maydagi 01-15-229-sonli “Toza qo‘llar” dasturi tasdiqlandi va ijroga qaratildi.**<br>Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 22-sentabrdagi 370-sonli buyrug‘i tasdiqlanib, joriy yilning 6-9-oktyabr kunlari o‘rganish ishlari olib borildi .<br>Topshiriq ijrosi yuzasidan moliyaviy hisobotlar, qilingan ishlar, rasmlar bilan birgalikda vazirlikning 2025-yil 26-noyabrdagi 01/15-5392-sonli xati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi hamda Adliya vazirligiga yuborildi. |
| 7. | 33-band. | Belgilab qo‘yilsinki: Davlat dasturini so‘zsiz, sifatli va to‘liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi hisoblanadi; davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari Davlat dasturida har chorak kesimida tegishli yo‘nalish va hudud bo‘yicha belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish, nazarda tutilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va zarur normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o‘z vaqtida va puxta ishlab chiqish uchun shaxsan javobgar bo‘ladi. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”** 2025-yil 30 yanvardagi **PF-16-son** Farmonida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga jami **40 ta** topshiriq ijrosini ta’minlash vazifasi yuklatilgan.<br>Davlat dasturiga asosan ishlab chiqiladigan normativ-hujjatlar soni 1 ta bo‘lib, mazkur bandning ijrosi avgust oyida ta’minlandi.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Davlat dasturini so‘zsiz, sifatli va to‘liq amalga oshirish maqsadida 2025-yil 17-mart kuni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Hay’atining 2/1-sonli |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | qarori qabul qilingan.<br>Bugungi kunda belgilangan topshiriqlarning 8 tasi o‘z vaqtida ijrosi ta’minlandi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlar asoslovchi hujjatlari bilan birgalikdan faktni tasdiqlovchi va umumlashtirib boruvchi Davlat organlariga xar oy yakuniga ko‘ra holati doimiy ravishda taqdim etib borilmoqda. |
| 8. | 37.1-band. | Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul<br>va shaxsiy javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin. | 25.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Davlat dasturini so‘zsiz, sifatli va to‘liq amalga oshirish maqsadida 2025-yil 17-mart kuni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Hay’atining 2/1-sonli qarori qabul qilingan.<br>Qarorning 17-bandida mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga shaxsiy javobgar etib Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri mas’ul etib belgilangan.<br>**Asos:** Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Hay’atining 2/1-sonli qarori. |
| 9. | 1-ilova 12.1-band. | Kasbiy ta’lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushini oshirish.<br>1. Majburiy va ixtiyoriy ravishda attestatsiyaga jalb etiladigan pedagoglarni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “pedagog.edu.uz” platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tishlarni ta’minlash. (2025-yil noyabr) | 25.11.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a)** Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq attestatsiyadan o‘tish uchun 2025-yil 1-avgustdan 1 oktabrga qadar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining **“pedagog.edu.uz”** platformasi orqali kasbiy ta’lim tashkilotlari va akademik litseylarning **6 332** nafar pedagog kadrlari murojaat qilgan. **1 293** nafar pedagog kadrning murojaatlari Nizom talablariga muvofiq bo‘lmaganligi sababli rad etilgan va **5 039** nafar pedagog kadrning hujjatlari (murojaat) tizim orqali qabul qilinib ro‘yxatdan o‘tkazilgan.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Vazirlikning 2025-yil 3-iyundagi **208-son buyrug‘i** bilan pedagog kadrlarning yangi malaka toifalari tasdiqlandi va **“pedagog.edu.uz”** platformasi orqali toifa sertifikatlari generatsiya qilindi. Kasbiy ta’lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushi **35,8 foizga yetkazildi.** |
| 10. | 1-ilova | Kasbiy ta’lim muassasalarida malaka | 25.11.2025 | *I. AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR VA ERISHILISHI* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 12.2-band. | toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlar ulushini oshirish.<br>2. Pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga tegishli malaka toifalarini berish. (2025-yil noyabr ) | | *REJALASHTIRILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Attestatsiya natijasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 3-iyundagi 208-son buyrug'i bilan 3 744 nafar pedagoglarga malaka toifalari berildi (2 135 nafar pedagoglarning amaldagi toifalari ko'tarildi, 1 609 nafar pedagoglar malaka toifasiga ega bo'ldi).<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 17-oktabrdagi 410-sonli buyrug'iga muvofiq **"pedagog.edu.uz"** platformasi orqali ro'yxatdan o'tgan **95** nafar pedagog kadrlarga to'g'ridan-to'g'ri malaka toifalari berildi. |
| 11. | 1-ilova 13.1-band. | Xalqaro ta'lim dasturlari asosida 14 ta texnikumda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish.<br>1. Xalqaro ta'lim dasturlari joriy etiladigan texnikumlar hamda kasb va mutaxassisliklarni belgilash. (2025-yil mart) | 25.03.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo'yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>a) **14 ta** texnikumda kadrlar tayyorlanadigan **9 ta** kvalifikatsiya belgilandi hamda ushbu kvalifikatsiya bo'yicha o'quv va ustaxonalarni jihozlash pasportlari shakllantirildi.<br>b) 2025/2026 o'quv yili uchun **14 ta** texnikumga qabul parametrlari belgilandi. **1 680 nafar** o'quvchilarni qabul qilish rejalashtirildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 14-martdagi 97-son buyrug'i.* |
| 12. | 1-ilova 13.2-band. | Xalqaro ta'lim dasturlari asosida 14 ta texnikumda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish.<br>2. Xalqaro ta'lim dasturini tarjima qilish va texnikumlarga yetkazish. (2025-yil may) | 25.05.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo'yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>"Pearson Education Limited" kompaniyasining **9 ta** (Axborot texnologiyalari, Qurilish muhandisligi, Mehmonxona biznesi (front ofis), Mehmonxona biznesi (umumiy ovqatlanish xizmatlari), Sayohat va turizm, Elektrotexnika va elektronika muhandisligi, Ishlab chiqarish muhandisligi, Raqamli muhandislik, Elektrotexnika asboblari sozlovchisi) "BTEC" kvalifikatsiyalarining ta'lim dasturlari o'zbek tiliga **tarjima qilindi hamda texnikumlarga yetkazildi**.<br>***Asos:*** *Vazirlikning 2025-yil 14-maydagi 02/11-1381-son xati.* |
| 13. | 1-ilova 13.3-band. | Xalqaro ta'lim dasturlari asosida 14 ta texnikumda o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlashni yo'lga qo'yish. | 25.07.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo'yicha batafsil amalga oshirilgan** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. Texnikum o‘qituvchilarining malakasini oshirish. (2025-yil iyul) | | **ishlar (faoliyat):**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda “Pearson Education Limited” kompaniyasi o‘rtasida 2025-yil 15-aprel kuni 14 ta texnikumlarda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish bo‘yicha shartnoma imzolandi.<br>Texnikum o‘qituvchilarining malakasini oshirishni 2025-yil 27-iyun kuni onlayn shaklda tashkil etish yuzasidan Buyuk Britaniyaning “Pearson Education Limited” kompaniyasi 2025-yil 20-iyundagi xatida ma’lum qildi.<br>Vazirlikning “Texnikumlar o‘qituvchilari hamda vazirlikning mas’ul xodimlarini xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish bo‘yicha malakasini oshirish to‘g‘risida” 2025-yil 24-iyundagi 236-son buyrug‘i qabul qilindi.<br>Mazkur buyruqqa 1-ilova bilan texnikumlarda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilishga jalb etilgan hamda 9 ta kvalifikatsiya bo‘yicha 124 nafar malakasi oshiriladigan o‘qituvchilar va mas’ul xodimlar ro‘yxati hamda 2-ilova bilan texnikumlarda xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish bo‘yicha malaka oshirish kursi dasturi tasdiqlandi hamda ijroga yo‘naltirildi.<br>“Pearson Education Limited” kompaniyasi tomonidan 2025-yil 27-iyun kuni xalqaro ta’lim dasturlari bo‘yicha texnikumlarning jami 124 nafar o‘qituvchilarining malakasi onlayn shaklda oshirildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 14-martdagi 97-son buyrug‘i.* |
| 14. | 1-ilova 13.4-band. | Xalqaro ta’lim dasturlari asosida 14 ta texnikumda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.<br>4. Xalqaro ta’lim dasturlariga o‘quvchilarni qabul qilish va ta’lim jarayonini tashkil etish. (2025-yil sentyabr) | 25.09.2025 | *AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>2025/2026 o‘quv yilida xalqaro ta’lim dasturlari joriy etiladigan 14 ta texnikumga Vazirlikning 2025-yil 15-iyundagi 115-son hamda 14-avgustdagi 302-son buyruqlariga muvofiq<br>9-sinf bitiruvchilari negizida 1350 ta tasdiqlandi. Vazirlikning 2025-yil 25-iyundagi 240-son buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasining 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayoniga muvofiq, 9-sinf bitiruvchilarining hujjatlarini qabul qilish jarayonlari joriy yilning 1-iyul kunidan 10-avgust kuniga qadar (shu kuni ham) my.edu.uz elektron platformasi orqali onlayn amalga oshirildi. Ma’lumot uchun: 11-sinf bitiruvchilarining hujjatlarini qabul qilish jarayonlari joriy yilning 10-sentyabr kuniga qadar davom etdi. Umumta’lim maktablarning |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | 1865 nafar (rejaga nisbatan 138 %) 9-sinf bitiruvchilari xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'qish istagini bildirgan. O'quvchilarni belgilangan qabul reja doirasida saralash maqsadida Vazirlikning 2025-yil 13-avgustdagi 300-son buyrug'iga asosan kirish (yozma) imtihonlari 25-avgust kuniga qadar o'tkazildi. Imtihon natijalariga asosan 14 ta texnikumga xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha 1356 nafar o'quvchi o'qishga qabul qilingan. Ushbu xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan 14 ta texnikumda xalqaro ta'lim dasturlari asosida o'qitish jarayonlari joriy yilining 3-sentyabrdan boshlanganligi ma'lum qilinadi.<br>***Asos:*** Vazirlikning 2025-yil 20-martdagi 115-son buyrug'i, 2025-yil 9-sentyabrdagi 01/11-3505-son xati. |
| 15. | 1-ilova 15-band. | Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi darajasini oshirish.<br>Oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan mehnat bozorining oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talabini o'rganish.<br>Mazkur ehtiyojlarga muvofiq moddiy-texnika bazasi, professor-o'qituvchilar tarkibi va o'quv-metodik ta'minotdan kelib chiqib, keyingi o'quv yili uchun oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'z qabul parametrlari bo'yicha takliflarni shakllantirish.<br>Oliy ta'lim tashkilotlarining qabul parametrlariga takliflarni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etish.<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim tashkilotlarining qabul parametrlari bo'yicha takliflarni tahlil qilish, umumlashtirish hamda ularni O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga kiritish. (2025-yil oktyabr) | 25.10.2025 | *AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash to'g'risida" 2025-yil 18-iyuldagi F-43-son Farmoyishining 1- va 2-ilovalari bilan 2025/2026-o'quv yili va kelgusi uch o'quv yilida davlat oliy ta'lim tashkilotlariga bakalavriat hamda magistraturasiga kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari tasdiqlandi.<br>Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining 2025/2026 o'quv yili uchun qabul parametrlariga takliflari ta'lim shakllari, ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) va tillar kesimida umumlashtirilib, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 23-iyuldagi 01/10-2450-son xati bilan O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga kiritildi.<br>O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi majlisining 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayoni bilan 2025/2026-o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul kvotalari parametrlari tasdiqlandi.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi **PF–81-son** Farmoniga muvofiq 2024/2025 o'quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta'lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kunduzgi ta'lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etilgan.<br>Farmonga muvofiq 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tomonidan shakllantiriladigan oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talab prognoziga muvofiq ravishda 4 yillik davr uchun tasdiqlanishi belgilangan.<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi orqali taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025/2026 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" farmoyishi loyihasi ko'rib chiqilib kelishib berildi (05.05.2025-y., 01/10-1/4-2-son).<br>Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining 2025/2026 o'quv yili uchun qabul parametrlariga takliflar ta'lim shakllari, ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) va tillar kesimida umumlashtirilib O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga kiritish uchun tayyorlanmoqda (28.05.2025-y., 02/10-1563-son). |
| 16. | 1-ilova 16.1-band. | Top-500 talikka kirgan xorijiy universitetlar bilan 12 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.<br>1. Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining top-500 talikka kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan qo'shma ta'lim dasturlarini ekspertizadan o'tkazish. (2025-yil sentyabr) | 25.09.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan respublikaning 7 ta oliy ta'lim muassasasining "Top-500" ga kirgan 7 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda 2 ta ta'lim yo'nalishi va 15 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazildi.Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan "Top-500" ga kirgan 5 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 2 ta ta'lim yo'nalishi va 15 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ekspertizadan o'tkazildi.<br>*II. BAND IJROSI BO'YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, "YO'L XARITASI", CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO'YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARNING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:<br>Samarqand davlat universiteti Rossiya Federatsiyasining Tomsk davlat universiteti, Qozon Federal universiteti bilan 60410100-Iqtisodiyot, 70410201-Buxgalteriya hisobi, 70230202-Sinxron tarjima, 70411401-Mamlakatshunoslik, 70410801-Menejment: Xalqaro menejment, 70510101-Biologiya: bioinformatika, 70530301-Geologiya, 70610304-Ma'lumotlar ilmi: biznes uchun ma'lumotlar tahlili ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari yuzasidan shartnomalar tuzildi;<br>Toshkent davlat agrar universiteti Xitoy Xalq Respublikasining Shimoliy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | g‘arbiy qishloq va o‘rmon xo‘jaligi universiteti bilan 70810803-Chorvachilik, 70811001-Mevachilik, 70810401-Agronomiya, 70810501-O‘simliklar himoyasi va karantini mutaxassisliklari bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlari yuzasidan shartnomalar tuzildi;<br>Toshkent davlat texnika universiteti Rossiya Federatsiyasining Milliy tadqiqotlar yadro universiteti, N.Ye.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti bilan 70710701-Elektronika va elektron texnikasi, 70710802-Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish, 70712301-Mashinasozlik texnologiyasi, 70710802-Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish mutaxassisliklari bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlari yuzasidan shartnomalar tuzildi. |
| 17. | 1-ilova 16.2-band. | Top-500 talikka kirgan xorijiy universitetlar bilan 12 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.<br>2. Ekspertiza natijasiga ko‘ra ijobiy xulosaga ega qo‘shma ta’lim dasturlari qabul kvotalarini kelishib berish. (2025-yil noyabr) | 25.11.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Ekspertiza natijalariga ko‘ra quyidagi ishlar amalga oshirildi:<br>Samarqand davlat universiteti Rossiya Federatsiyasining Tomsk davlat universiteti (QS-431) bilan hamkorlikda 60410100 – Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi, 70510101 – Biologiya: bioinformatika mutaxassisligi, 70530301 – Geologiya mutaxassisligi, 70410801 – Menejment: Xalqaro menejment mutaxassisligi bo‘yicha, Qozon (Volgabo‘yi) federal universiteti (QS-401) bilan hamkorlikda 70230202 – Sinxron tarjima mutaxassisligi, 60610400 – Dasturiy injiniring: aqlli transport tizimlari va uchuvchisiz platformalar ta’lim yo‘nalishi, 70411401 – Mamlakatshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha;<br>Samarqand davlat tibbiyot universiteti Italiyaning Piza universiteti (QS-343) bilan hamkorlikda 70910203 – Terapiya mutaxassisligi bo‘yicha;<br>Toshkent davlat agrar universiteti Xitoy Xalq Respublikasining Shimoliy g‘arbiy qishloq va o‘rmon xo‘jaligi universiteti (ARWU-301-400) bilan hamkorlikda 70810401 – Agronomiya mutaxassisligi bo‘yicha, 70810501 – O‘simliklar himoyasi va karantini mutaxassisligi bo‘yicha, 70810803 – Chorvachilik mutaxassisligi bo‘yicha, 70811001 – Mevachilik mutaxassisligi bo‘yicha;<br>Toshkent davlat texnika universiteti Rossiya Federatsiyasining N.Ye. Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti (QS-298) bilan hamkorlikda 70712301 – Mashinasozlik texnologiyasi mutaxassisligi, 70710802 – Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish mutaxassisligi bo‘yicha;<br>Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Germaniya Federativ Respublikasining Frayberg konchilik akademiyasi (QS-487) bilan hamkorlikda |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | 70720801 – Foydali qazilma konlarini qazish mutaxassisligi bo‘yicha;<br>O‘zbekiston milliy universiteti Jizzax filiali Rossiya Federatsiyasining Qozon (Volgabo‘yi) federal universiteti (QS-401) bilan hamkorlikda 70310301 – Psixologiya mutaxassisligi bo‘yicha;<br>Qo‘qon davlat universiteti Qozog‘iston Respublikasining Al Farobiy Qozoq milliy universiteti (QS-166) bilan hamkorlikda 70530104 – Aniq va tabiiy fanlar o‘qitish metodikasi (kimyo) mutaxassisligi bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlari yuzasidan qabul kvotalari tasdiqlandi.<br>Mazkur topshiriq ijrosi yuzasidan respublikamizning 3 ta oliy ta’lim muassasasi “Top-500” ga kirgan 5 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda 2 ta ta’lim yo‘nalishi va 15 ta magistratura mutaxassisligi bo‘yicha qo‘shma ta’lim dasturlari ekspertizadan o‘tkazilib 289 ta qabul kvotalari tasdiqlandi. |
| 18. | 1-ilova 17.1-band. | Respublikadagi kamida 1 ta oliy ta’lim muassasasini nufuzli xalqaro reytinglarning birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish.<br>1. Nufuzli xalqaro reyting tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish. (2025-yil may) | 25.05.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARINI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a)Topshiriq ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Times Higher Education (THE) xalqaro reyting tashkiloti bilan 5 ta oliy ta’lim muassasasiga konsalting xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma imzolandi.<br>Toshkent davlat texnika universiteti va Quacquarelli Symonds (QS) reyting agentligi o‘rtasida universitetning QS Stars xalqaro reyting tizimiga qo‘shilishi bo‘yicha hamkorlik shartnomasi tuzildi.<br>Qarshi davlat universiteti va Toshkent davlat texnika universiteti tomonidan Istanbulda o‘tkaziladigan Barqaror rivojlanish bo‘yicha xalqaro kongressda ishtirok etish uchun THE tashkiloti bilan alohida shartnomalar imzolandi. |
| 19. | 1-ilova 17.2-band. | Respublikadagi kamida 1 ta oliy ta’lim muassasasini nufuzli xalqaro reytinglarning birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish.<br>2. Xalqaro reyting tashkilotlari ekspertlari ishtirokida respublikamiz oliygohlaridagi reyting uchun mas’ul xodimlarga seminar-trening tashkil qilish. (2025-yil iyul) | 25.07.2025 | *AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARINI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Topshiriq ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat)**<br>QS (Quacquarelli Symonds) reyting tashkilotining mintaqaviy direktori Sergey Xristolyubov bilan hamkorlikda “Oliy ta’lim tashkilotlarini xalqaro reytinglarda ustunligini ta’minlash” mavzusida seminar-trening tashkil etildi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 20. | 1-ilova 17.3-band. | Respublikadagi kamida 1 ta oliy ta'lim muassasasini nufuzli xalqaro reytinglarning birinchi 1 000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish.<br>3. Oliy ta'lim tashkilotlarining nufuzli reyting tashkilotlari tomonidan tashkil qilinadigan xalqaro tadbirlarda ishtirokini ta'minlash. (2025-yil dekabr) | 25.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARINI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Topshiriq ijrosi bo'yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat)**<br>Times Higher Education (THE) xalqaro reyting tashkiloti tomonidan 2025-yil 16-19-iyun kunlari Istanbul shahrida o'tkazilgan "Global Barqaror Rivojlanish Kongressi" doirasidagi universitetlar ko'rgazmasida ishtirok etildi. |
| 21. | 1-ilova 18-band. | Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni yotoqxona bilan qamrab olish darajasini yaxshilash.<br>Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan yaratiladigan qo'shimcha yotoq o'rinlari sonini 8 000 taga yetkazish. (2025-yil dekabr) | 25.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a)** Respublika bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarida **35 057 o'rinli 58 ta** talabalar turar joylari barpo etish loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan:<br>- 31 117 o'rinli 50 ta davlat-xususiy sheriklik asosida;<br>- 3 940 o'rinli 8 tasi oliygohlarning to'liq o'z mablag'lari hisobidan loyihalar amalga oshirilmoqda.<br>**b)** Ayni paytda qurish ishlari boshlangan loyihalar **21 747 o'rinli 36 ta** tashkil etadi.<br>**11 684 o'rinli 21 ta** talabalar turar joylari yaratildi hamda talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasi oshirildi.<br>*II. BAND IJROSI BO'YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, "YO'L XARITASI", CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO'YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" 2025-yil 12-iyundagi 362-son qarori qabul qilindi.<br>Qaror bilan:<br>Davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilib, Davlat qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan talabalar turar joylarini saqlash va ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish tartibi belgilandi. |
| 22. | 1-ilova 21.1-band. | Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar sonini 28 taga yetkazish. | 25.05.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a)** Ilmiy hajmdor mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalarini tijoratlashtirishni qo'llab-quvvatlash hamda ilmiy |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Ilmiy hajmdor mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish. (2025-yil may) | | hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan innovatsion korxonalar faoliyati tahlil qilindi.<br>**b)** Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar tomonidan yaratilgan ilmiy hajmdor mahsulotlar soni **89 tani tashkil etadi.**<br>**v)** "Oliy ta'lim, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari qoshida (spin-off) tajriba ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon loyihasi ishlab chiqilib, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishildi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 20 maydagi 4/17-1328-sonli xati* |
| 23. | 1-ilova 21.2-band. | Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar sonini 28 taga yetkazish.<br>Hajmdor mahsulotlarning tijorat imkoniyatlarini o'rganish. (2025-yil iyul) | 25.07.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo'yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, vazirlik huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining yangi ishlanmalari asosida ishlab chiqarishni tashkil etish tizimini joriy qilish to'g'risida" Farmoni loyihasi tayyorlanmoqda. Mazkur Farmon loyihasiga muvofiq, ilmiy hajmdor mahsulotlarning tijorat imkoniyatlarini o'rganilib, korxona investitsiya davrida istiqbolsiz, faoliyat ko'rsatmayotgan, zarar ko'rib ishlayotgan va past rentabelli davlat muassasalari va davlat ishtirokidagi korxonalar sifatida tugatilmasligi belgilangan.<br>Farmoni loyihasi ishlab chiqildi va mazkur Farmon loyihasida Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning yangi ishlanmalari asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilanishi nazarda tutilgan:<br>oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash;<br>ilmiy-tadqiqot natijalarining texnologik transferi tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning tadbirkorlik muhitiga moslashuvchanligini oshirish;<br>oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar ta'sischiligida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar (tovar va xizmatlar) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;<br>oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish natijasida olinadigan daromadlarini oshirish.<br>Yangi ishlanmalarga asoslangan "spin-off" korxonalarini reestrini yuritish va reestrga kirgan korxonalarga imtiyoz va preferensiyalar berilishi nazarda tutilgan. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 24. | 1-ilova 21.3-band. | Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalar sonini 28 taga yetkazish.<br>Yangi (spin-off) korxonalarini tashkil etish. (2025-yil noyabr) | 25.11.2025 | *<u>I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:</u>*<br>**<u>a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):</u>**<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 20-iyun kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 32-sonli bayoni, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Andijon davlat texnika instituti tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 18-noyabrdagi PQ-396-son qarori, 2025-yil 24-yanvardagi “Buxoro davlat texnika universitetini tashkil etish to‘g‘risida PQ-22-son, “Namangan davlat texnika universitetini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-23-son hamda “Farg‘ona viloyatidagi oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-yanvardagi PQ-26-son qarorlarida oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari hamda talabalari tomonidan amalga oshirilgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalarini tijoratlashtirish hamda sotish maqsadida “spin-off” korxonalarini tashkil etish belgilangan.<br>**b)** Ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin-off) korxonalarni tashkil etish yuzasidan ilmiy hajmdor mahsulotlar ro‘yxati shakllantirildi; hajmdor mahsulotlarning tijorat imkoniyatlari o‘rganildi hamda oliy ta’lim muassasalarida **31 ta** yangi innovatsion korxona (spin-off) tashkil etildi.<br>Mazkur spin-off korxonalar uchun hamkor ishlab chiqarish korxonalaridan **10 mlrd 839 mln so‘m** jalb qilingan, spin-off korxonasida yaratilgan innovatsion mahsulotdan<br>**573,1 mln so‘m** mablag‘ olindi.<br>Shuningdek, 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab, spin-off korxonalari **14 ta** oliy ta’lim tashkilotida tashkil etilgan Ilg‘or muhandislik maktablarida ta’lim olayotgan talabalar uchun ishlab chiqarish va tajriba amaliyotlarini o‘tashi uchun xizmat qilmoqda. |
| 25. | 1-ilova 59.1-band. | Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o‘yinlar hamda chet tillarini o‘rganishga jalb etish orqali yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.<br>1. Intellektual o‘yinlarni rivojlantirish maqsadida barcha ta’lim muassasalarida shaxmat to‘garaklarini joriy etish.(2025- | 25.04.2025 | *<u>I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:</u>*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat);**<br>Barcha oliy, kasbiy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida Intellektual o‘yinlarni rivojlantirish maqsadida shaxmat to‘garaklari to‘g‘risida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish, faol talabalar tarkibidan targ‘ibot jamoalarini |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yil aprel) | | tashkil etish, mazkur jamoalarning faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish bo‘yicha Vazirlikning 2025-yil 8-apreldagi topshiriq xati ijroga yuborildi.<br>Shu bilan birga, ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida shaxmatni zamonaviy texnologiyalar orqali samarali o‘rgatish tizimini yo‘lga qo‘yish hamda keng targ‘ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida “UzChess” platformasidagi “UzChess” sahifasida 198 ta videodarslar, 375 ta qisqa roliklar, 95 ta video tahlillar, 45 ta intervyular, 501 ta jonli efirlar loyihasi yo‘lga qo‘yildi.<br>Shuningdek, Youtube internet saytida maktab o‘quvchisi yoshidagi bolalar uchun shaxmatni “nol”dan boshlab bepul, tez va oson o‘rgatishga qaratilgan “UzChess” sahifasi yaratildi.<br>Hozirda talaba-yoshlar orasida shaxmatni yanada ommalashtirish, shaxmatga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ushbu loyihani yo‘lga qo‘yish orqali bolalarning o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash hamda tahlil qilish darajasini aniqlash maqsadida yangicha metodikalar, darslik va onlayn darslar, tahliliy materiallar yaratildi.<br>“UzChess” loyihasi bo‘yicha ta’lim muassasalarida faol targ‘ibot ishlari olib borildi. Bu maqsadda 600 dan oshiq kasbiy ta’lim muassasalari, 203 ta oliy ta’lim muassasalarida 124 mingdan ziyod “UzChess” loyihasi targ‘ibot vizitkalari, broshyuralar tarqatildi hamda mazkur ta’lim muassasalari yoshlari o‘rtasida loyiha haqida ma’lumot berib borildi.<br>Oliy va kasbiy ta’lim muassasalari talaba-o‘quvchilari o‘rtasida shaxmat turlari bo‘yicha “Talabalar ligasi” nizomlari hamda shaxmat bo‘yicha “Akademik litsey ligasi”, shaxmat va voleybol bo‘yicha “Professional ta’lim muassasalari ligasi” nizomlari tasdiqlandi, ijro uchun yuborildi.<br>“Talabalar ligasi” sport musobaqalarini o‘tkazish bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarida maxsus buyruqlar qabul qilindi. Shuningdek, “Talabalar ligasi” sport musobaqalari tashkil etish uchun har biriga alohida mutaxassisliklariga mos holda mas’ul biriktirildi.<br>Sport musobaqalariga barcha talabalarni jalb etish maqsadida sport turilari kesimida jadval (grafik) ishlab chiqilib, tasdiqlandi.<br>Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ularning moddiy-texnika bazasidan kelib chiqib, shaxmat turlari bo‘yicha bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi seksiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.<br>Sport musobaqalarida ishtirok etuvchi talabalar ro‘yxati shakllantirilib, jamoalar tuzildi. Mazkur jamoalarga nomlar berildi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Shu bilan birga, sport musobaqalarida barcha talabalarni ishtirok etishlari uchun Oliy ta'lim muassasasining video roliklari, ijtimoiy tarmoqlarda "Talabalar ligasi" sport musobaqalariga ishtirok etish murojaatlar, targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi.<br>Shuningdek, sport musobaqalari o'tkaziladigan maydonlarga hamda Oliy ta'lim muassasalarining kirish joylariga "Talabalar ligasi" sport musobaqalari bo'yicha e'lonlar va bannerlar joylashtirilmoqda.<br>**b)** 2025 yil 9 aprel holatiga 141 ta oliy ta'lim muassasalarida 421 ta sport musobaqalari sport turi shaxmat bo'yicha o'tkazildi.<br>Mazkur musobaqalarda 3 450 nafar talaba (1 796 yigitlar, 1 654 qizlar) ishtiroki ta'minlandi.<br>Musobaqalarda talabalarning ishtiroki va qamrovini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilmoqda. OTMning veb-saytlarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilmoqda.<br>Sport musobaqalarini ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib qilish maqsadida 83 ta maqolalar, e'lonlar berildi. Mazkur maqola, e'lonlar respublika va hududiy televideniya, gazeta va jurnal, nashrlar va radiolarda, oliy ta'lim muassasasining veb-saytlarida, ijtimoiy tarmoqlarda, sport musobaqalari keng yoritildi.<br>Shuningdek, vazirlik rahbariyati tomonidan o'tkaziladigan yig'ilishlarda, "Talabalar ligasi" sport musobaqalarini tashkil etish bo'yicha masalalar kiritilib, topshiriqlar belgilanib kelinmoqda. |
| 26. | 1-ilova 59.2-band. | Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlar hamda chet tillarini o'rganishga jalb etish orqali yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.<br>2. Yoshlarning chet tillariga qiziqishlarini oshirish hamda o'rgatish maqsadida joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o'quv markazlarini ochish hamda malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash choralarini ko'rish.(2025-yil fevraldan boshlab yil davomida) | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika hududlarida yoshlar uchun xorijiy tillarni o'qitish markazlarini tashkil etishga mas'ul 14 ta oliy ta'lim tashkilotlari belgilab olindi hamda ularga vazirlikning tegishli topshiriq xati yuborildi.<br>Hozirda 14 ta (Samarqand davlat chet tillar instituti, Namangan davlat chet tillar instituti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Andijon davlat chet tillari instituti, Buxoro davlat universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti) oliy ta'lim |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | tashkilotlarida talabalarning xorijiy tillariga qiziqishlarini oshirish hamda o‘rgatish maqsadida joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o‘quv markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda malakali professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlanmoqda. Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Respublika hududlarida yoshlar uchun xorijiy tillarni o‘qitish markazlarini tashkil etishga mas’ul 14 ta oliy ta’lim tashkilotlari belgilab olindi hamda ularga vazirlikning tegishli topshiriq xati yuborildi.<br>Hozirda 7 ta (Samarqand davlat chet tillar instituti, Namangan davlat chet tillar instituti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti) oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning xorijiy tillariga qiziqishlarini oshirish hamda o‘rgatish maqsadida joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o‘quv markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda malakali professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlanmoqda.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARNING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:<br>Samarqand davlat chet tillar instituti “Tesol” nodavlat ta’lim muassasasi bilan 2024-yil 25-dekabri kuni imzolangan hamkorlik shartnomasi asosida Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida yashovchi kam ta’minlangan oilalar farzandlari uchun Tuman markazida joylashgan 82-son maktab binosida ikkita zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xorijiy tillarni o‘qitish o‘quv markazi tashkil etildi;<br>Namangan davlat chet tillari institutida 2025-yil 24-fevral kuni tasdiqlangan Nizomga muvofiq “iLINGUIST” xorijiy tillarni o‘qitish va tarjima xizmatlari markazi tashkil etilgan bo‘lib, ushbu o‘quv markazda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha nemis va ingliz tillaridan kurslar faoliyati yo‘lga qo‘yildi;<br>Samarqand davlat universitetining 2024-yil 11-dekabrdagi 477-ij-sonli buyrug‘i bilan xorijiy tillarni o‘rgatuvchi o‘quv markazi tashkil etildi;<br>Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2020-yil 28-avgustdagi 1-sonli majlis bayonnomasiga asosan Til ta’limi va konsalting markazida xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi til o‘qitish kurslari tashkil etildi; |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi rektorining 2022-yil 27-apreldagi 01-83-son buyrug‘iga muvofiq “Academic study” o‘quv markazi tashkil etildi;<br>Urganch davlat universiteti rektorining 2025-yil 12-fevraldagi 31-I-4-son buyrug‘iga muvofiq “Xorijiy tillar” o‘quv markazi faoliyati tashkil etildi;<br>Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektorining 2025-yil 2-iyundagi 1/182-son buyrug‘iga muvofiq chet tillari bo‘yicha o‘quv kurs tashkil etildi. |
| 27. | 2-ilova 1-band. | Davlat oliy ta’lim tashkilotlarining tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini oshirish, ularning faoliyatiga o‘zini o‘zi boshqarish tamoyilini keng joriy qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi.<br>Loyihada moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim tashkilotlarining vakolatlari quyidagilar kabi masalalar hisobidan kengaytirilib, kuzatuv (boshqaruv) kengashlaridan oliy ta’lim tashkilotlarining kengashlariga o‘tkazish nazarda tutiladi:<br>oliygoh boshqaruv xodimlari va professor-o‘qituvchilarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) belgilash;<br>daromadlar va xarajatlar parametrlarini tasdiqlash;<br>oliygohning innovatsion va boshqa jamg‘armalar mablag‘larini sarflash tartibi va yo‘nalishlarini belgilash;<br>oliygohda mehnatga haq to‘lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag‘batlantirish tartibini tasdiqlash;<br>oliygohning byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish tartibini joriy | 25.08.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI.*<br>Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi hamda quyidagilar aniqlandi:<br>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–61-son qarorining 1-bandi bilan Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalari ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, mazkur qarorning 6-bandi bilan Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalarida kuzatuv kengashlarining asosiy vakolatlari belgilangan.<br>Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–60-son qarorining 1-bandi to‘rtinchi xatboshi bilan Kuzatuv kengashi o‘z vakolatlarini oliy ta’lim muassasasi kengashiga topshirishga, shuningdek, oliy ta’lim muassasasi kengashiga kiruvchi vakolatlarni o‘z zimmasiga olishga haqli ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib amaliyotda Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalari mazkur vakolatdan foydalanib kelishmoqda.<br>Misol tariqasida, Namangan davlat universiteti Kuzatuv kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli majlis Bayoni.<br>Yuqoridagilarni hamda moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim tashkilotlarining kuzatuv (boshqaruv) kengashlari o‘z vakolatlarining ba’zilarini oliy ta’lim tashkiloti kengashiga o‘tkazish amaliyoti mavjud ekanligini inobatga olib mazkur topshiriqni belgilangan tartibda nazoratdan olinishi yuzasidan murojaat xati yuborilgan. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | qilish. (2025-yil avgust) | | |
| 28. | 3-ilova 13-band. | Kasbiy ta’lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushi.<br>O‘lchov birligi — foiz, 2025-yil- 35; I chorak — 25; II chorak — 28; III chorak — 30; IV chorak -35. | 31.12.2025 | *II. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga asosida joriy yilning may oyida kasbiy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan **6 624 nafar** pedagog kadrlar attestatsiyadan o‘tkazildi.<br>Attestatsiya natijasiga ko‘ra **1 609 nafari** pedagoglarning malaka toifasi oshirildi.<br>*Ma’lumot uchun: (**649 nafari** bosh o‘qituvchi, **978 nafari** yetakchi o‘qituvchi hamda **1 125 nafari** katta o‘qituvchi lavozimiga ega bo‘ldi).*<br>Kasbiy ta’lim tashkilotlarida mavjud **28 035** nafar pedagog kadrlardan **10 023** nafari malaka toifasiga ega bo‘lib, ularning ulushi **35,8 foizga** yetkazildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 3-iyundagi 208-son buyrug‘i.* |
| 29. | 3-ilova 14-band. | Yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasi.<br>O‘lchov birligi — foiz, 2025-yil — 44; IV chorak -44. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>2024/2025 o‘quv yilida respublika umumta’lim maktablari hamda akademik litseylarini jami 467612 nafar bitiruvchilar tamomlagan. Mazkur bitiruvchilardan 2025/2026 o‘quv yili bo‘yicha respublikadagi davlat hamda nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari, shuningdek, xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga o‘qishga qabul qilingan talabalar soni **225569** nafarni tashkil etdi. 2025-yilda yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasi **44% dan oshirildi.**<br>Asos: 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayon hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 15-oktyabrdagi 02/10-4285-sonli xati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi **PF–81-son** Farmoniga muvofiq 2024/2025 o‘quv yili qabulidan boshlab davlat buyurtmasi parametrlarini davlat oliy ta’lim muassasalari kesimida taqsimlash amaliyoti bekor qilinib, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tasdiqlash tartibi joriy etilgan. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Farmonga muvofiq 2025-yildan boshlab davlat buyurtmasi parametrlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan shakllantiriladigan oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan talab prognoziga muvofiq ravishda 4 yillik davr uchun tasdiqlanishi belgilangan.<br>Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi orqali taqdim etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025/2026 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida" farmoyishi loyihasi ko'rib chiqilib kelishib berildi (05.05.2025-y., 01/10-1/4-2-son).<br>Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining 2025/2026 o'quv yili uchun qabul parametrlariga takliflar ta'lim shakllari, ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar) va tillar kesimida umumlashtirilib O'zbekiston Respublikasi ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasiga kiritish uchun tayyorlanmoqda (28.05.2025-y., 02/10-1563-son). |
| 30. | 3-ilova 15-band. | Oliy ta'lim muassasalarini dunyoning eng nufuzli top-1000 oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritish.<br>O'lchov birligi — dona, 2025-yil- 1; IV chorak -1. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARINI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Topshiriq ijrosi bo'yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat)**<br>Belgilangan chora-tadbirlarning sifatli amalga oshirilishi natijasida, joriy yil QS World University Rankings–2026 reytingida O'zbekistonning 3 ta oliygohi TOP–1000 oliygohlar ro'yxatidan o'rin egalladi:<br>"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" milliy tadqiqot universiteti – 469-o'rin;<br>O'zbekiston Milliy universiteti – 721–730-o'rin;<br>Toshkent davlat texnika universiteti – 901–950-o'rin.Nufuzli xalqaro reyting tashkiloti — Times Higher Education (THE) bilan 5 ta oliy ta'lim muassasasiga konsalting xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnoma imzolandi.<br>Toshkent davlat texnika universitetining Quacquarelli Symonds (QS) reyting agentligining QS Stars xalqaro reyting tizimiga qo'shilishi bo'yicha hamkorlik shartnomasi tuzildi.<br>QS reyting tashkilotining mintaqaviy direktori Sergey Xristolyubov ishtirokida "Oliy ta'lim tashkilotlarini xalqaro reytinglarda ustunligini ta'minlash" mavzusida seminar-trening tashkil etildi.<br>Xalqaro reytinglar bo'yicha ekspert professor Don Eliseo ishtirokida "Scopus va Web of Science ilmiy bazalaridagi nashr faolligini hamda xalqaro reytinglarda oliy ta'lim tashkilotlarining o'rnini mustahkamlash" mavzusida seminar-trening |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | o‘tkazildi.<br>Times Higher Education xalqaro reyting tashkiloti tomonidan Turkiyada o‘tkaziladigan “Global Barqaror Rivojlanish Kongressi” doirasidagi universitetlar ko‘rgazmasida ishtirok etildi. |
| 31. | 3-ilova 16-band. | Oliy ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish.<br>O‘lchov birligi — dona, 2025-yil- 30; III chorak — 10; IV chorak -20. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARINI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Mazkur topshiriqlar ijrosi yuzasidan **10 ta** oliy ta’lim tashkilotlarining **32 ta** ta’lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilib sertifikatlari olindi. Xususan,<br>Toshkent davlat pedagogika universitetining **4 ta**,<br>Buxoro davlat tibbiyot institutining **3 ta**,<br>Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialining **1 ta,**<br>Toshkent axborot texnologiyalari universitetining **6 ta**,<br>“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti **3 ta,**<br>Central Asian Medical Universityning- **2 ta**,<br>Jizzax davlat pedagogika universitetining **4 ta**,<br>Toshkent davlat agrar universitetining **3 ta,**<br>Toshkent davlat texnika universiteti **4 ta** va<br>Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti — **2 ta** ta’lim dasturi bo‘yicha xalqaro sertifikatlar olindi. |
| 32. | 3-ilova 18-band. | Oliy ta’lim muassasalarida yangi o‘quv binolarini qurish hisobiga yaratiladigan qo‘shimcha talaba o‘rinlari soni.<br>O‘lchov birligi — mingta, 2025-yil- 6,8 ; III chorak — 3; IV chorak -3,8. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida Namangan davlat universitetining 2000 o‘rinli Innovatsiya o‘quv binosi;<br>Samarqand davlat universitetining intellektual tizimlar va kompyuter texnologiyalari fakultetining 1000 o‘rinli;<br>Shahrisabz davlat pedagogika institutining 1500 o‘rinli;<br>Qarshi davlat texnika universitetining 1000 o‘rinli;<br>Toshkent davlat transport universitetining 5000 o‘rinli o‘quv binolari;<br>**jami 10 500 o‘rinli 5 ta yangi o‘quv bino barpo etildi.**<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrdagi “2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son qarori hamda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv binoga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, respublika bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida 6 800 o‘rinli 6 ta o‘quv binolarini barpo etish loyihalari amalga oshirilmoqda.<br>b) Ayni vaqtda ushbu oliy ta’lim muassasalarining obyektlarida loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan bo‘lib, qurilish ta’mirlash ishlari olib borilmoqda. |
| 33. | 3-ilova 19-band. | Talabalar turarjoylarini qurish hisobiga yaratiladigan qo‘shimcha o‘rinlar soni.<br>O‘lchov birligi — mingta, 2025-yil- 8; III chorak — 4; IV chorak -4. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a)** Respublika bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida 35 057 o‘rinli 58 ta talabalar turar joylari barpo etish loyihalari amalga oshirilmoqda. Jumladan:<br>- 31 117 o‘rinli 50 ta davlat-xususiy sheriklik asosida;<br>- 3 940 o‘rinli 8 tasi oliygohlarning to‘liq o‘z mablag‘lari hisobidan loyihalar amalga oshirilmoqda.<br>Ayni paytda qurish ishlari boshlangan loyihalar 21 747 o‘rinli 36 ta tashkil etadi.<br>Bugungi kunda **11 684 o‘rinli 21 ta talabalar turar joylari yaratildi** hamda talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasi oshirildi.Ma’lumot uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziriga talabalar turar joylarini foydalanishga topshirilgani yuzasidan axborot berildi hamda 2025-yil 31-avgust kuni VM27/25-155 155-sonli majlis bayoni qabul qilindi.<br>Shuningdek, 2025-yil 5-sentyabr kuni vazirlik tomonidan 01/43-2290-sonli xati bilan Prezident Administratsiyasiga talabalar turar joylarini foydalanishga topshirilgani yuzasidan axborot xati yuborildi<br>Davlat dasturida belgilangan topshiriqlar to‘liq bajarildi.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2025-yil 12-iyundagi 362-son qarori qabul qilindi.<br>Qaror bilan: Davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilib, Davlat qabul |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingan talabalar turar joylarini saqlash va ekspluatatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplab berish tartibi belgilandi. |
| 34. | 15-ilova 17-band. | “Yosh kitobxon” tanlovini qo‘shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman) o‘tkazish.<br>O‘lchov birligi — xorijiy tillar ; 2025-yil — 1; IV chorak — 5. | 31.12.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLARNI TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Topshiriq ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Topshiriqqa muvofiq, “Yosh kitobxon” tanlovi 6 ta tilda ta’lim yo‘nalishi, sohasi, mutaxassisligidan qat’iy nazar, respublikadagi barcha oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar jamoaviy bo‘lib ishtirok etishi belgilandi. Tanlov barcha oliy ta’lim tashkilotlarida 1-bosqichda tashkil etildi va ommaviy axborot vositalari va oliy ta’lim tashkilotlari ijtimoiy tarmoqlarida keng yoritib borildi.<br>Mazkur tanlovda oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan jami 18 ming nafardan (o‘tgan yilga nisbatan 50% ga ko‘proq) ortiq talabalar jamoalarga bo‘lingan holda ishtirok etdilar. Shundan:<br>12 ming nafarga yaqin ishtirokchilar rus tilida, 5 ming nafardan ortiq ishtirokchilar qoraqalpoq tilida, 500 nafarga yaqin ishtirokchilar tojik tilida, 700 nafardan ortiq ishtirokchilar qozoq tilida, 65 nafar ishtirokchilar qirg‘iz tilida, 24 nafar ishtirokchilar turkman tilida ishtirok etdilar.<br>*II. BAND IJROSI BO‘YICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, “YO‘L XARITASI”, CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BO‘YICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 3-oktyabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida “Yosh kitobxon” tanlovini 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman) o‘tkazish to‘g‘risida”gi 384-sonli buyrug‘i imzolandi.<br>Ushbu tanlovni har yili oktyabr oyining ikkinchi o‘n kunligida o‘tkazilishi belgilandi hamda tanlovni o‘tkazish bo‘yicha Nizom tasdiqlandi.<br>Tanlov nizomiga ko‘ra g‘olib bo‘lgan jamoalar oliy ta’lim tashkiloti tomonidan quyidagi tartibda:<br>1-o‘rin — har bir jamoa a’zosiga bazaviy stipendiya miqdorining uch barobari;<br>2-o‘rin — har bir jamoa a’zosiga bazaviy stipendiya miqdorining ikki barobari;<br>3-o‘rin — har bir jamoa a’zosiga bazaviy stipendiya miqdorining bir barobari miqdorida pul mukofoti, diplom va faxriy yorliqlari bilan rag‘batlantirildi. |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 35. | 16-ilova 30.1-band. | Oliy ta'lim muassasalarining talabalari oʻrtasida "Eko-innovation – 2025" ekologik muammolar yechimiga bagʻishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar koʻrgazmasini tashkil etish.<br>1. Innovatsion ishlanmalar va loyihalar koʻrgazmasini oʻtkazish nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash.(2025-yil iyun) | 25.06.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi boʻyicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Oliy ta'lim muassasalarining talabalari oʻrtasida "Eko-innovation – 2025" ekologik muammolar yechimiga bagʻishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar koʻrgazmasini oʻtkazish nizom loyihasi ishlab chiqildi.<br>Mazkur nizom loyihasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishilib, taklif va e'tirozlar asosida tegishli oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025 yil 9-iyundagi 03/42-1730-sonli xati.*<br>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Eko-innovation – 2025" ekologik muammolar yechimiga bagʻishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar koʻrgazmasini tashkil etish va oʻtkazish toʻgʻrisidagi buyrugʻi bilan Koʻrgazmani oʻtkazish tartiblari toʻgʻrisidagi nizom tasdiqlandi.<br>Ushbu nizomga muvofiq, "Eko-innovation – 2025" ekologik koʻrgazmasi 2025-yilning sentyabr oyida ekologiya, qishloq xoʻjaligi va texnika yoʻnalishlari mavjud 49 ta oliy ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladi.<br>*II. BAND IJROSI BOʻYICHA QABUL QILINGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT, KONSEPSIYA, "YOʻL XARITASI", CHORA-TADBIRLAR REJASINING IJROSI BOʻYICHA HOZIRGA QADAR AMALGA OSHIRILGAN AMALIY ISHLARNING TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI TAHLILI:*<br>Oliy ta'lim tashkilotlarining mavjud salohiyatidan kelib chiqqan holda, koʻrgazmalarda 5 ming nafardan ortiq yoshlar 2 ming tadan ortiq innovatsion ishlanmalar bilan ishtirok etishi prognoz qilinmoqda.<br>Koʻrgazmada quyidagi 3 ta asosiy yoʻnalishlarda innovatsion loyiha va ishlanmalar ishtirok etishi belgilandi:<br>– Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim oʻzgarishlariga qarshi kurash, chiqindilarni qayta ishlash va kamaytirish;<br>– Qayta tiklanuvchi energiya manbalari;<br>– Innovatsion ekologik texnologiyalar va qurilmalar.<br>"Eko-innovation – 2025" ekologik koʻrgazmasi yakunida har bir yoʻnalish boʻyicha 3 nafardan gʻoliblar aniqlanib, mos ravishda 6,4,2 million soʻm miqdorida ragʻbatlantirilishi belgilandi.<br>***Asos:*** *Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025 yil 19-iyundagi 228-son buyrugʻining 2-ilovasi.* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 36. | 16-ilova 30.2-band. | Oliy ta’lim muassasalarining talabalari o‘rtasida “Eko-innovation – 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasini tashkil etish.<br>2. Ko‘rgazmani tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan vazirlik va idoralarning vakillaridan iborat ishchi guruhini tuzish va tasdiqlash.(2025-yil iyul) | 25.07.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>**“Eko-innovation – 2025”** ekologik ko‘rgazmasini tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan vazirlik va idoralar bilan kelishuv asosida ishchi guruh tarkibi shakllantirildi.<br>Joriy yilning 14-iyul kuni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan **“Eko-innovation – 2025”** ekologik ko‘rgazmasini tashkil etish va o‘tkazish yuzasidan vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi. |
| 37. | 16-ilova 30.3-band. | Oliy ta’lim muassasalarining talabalari o‘rtasida “Eko-innovation – 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasini tashkil etish.<br>3. Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Eko-innovation – 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasini tashkil etish.(2025-yil sentyabr-oktyabr) | 25.09.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 19-iyundagi 228-son buyrug‘i bilan “Eko-innovation – 2025” ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasi **joriy yilning sentyabr oyida** ekologiya, qishloq xo‘jaligi va texnika yo‘nalishlari mavjud **49 ta oliy ta’lim tashkilotlari**ning har birida o‘tkazilishi belgilangan.<br>Shunga muvofiq, **“Eko-innovation – 2025”** ekologik muammolar yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va loyihalar ko‘rgazmasi yuqori saviyada o‘tkazildi, mazkur ko‘rgazmalarda **6 838 nafar iqtidorli talabalar** qamrab olinib, **1 358 ta innovatsion ishlanma** va loyihalar namoyish etildi.<br>Ko‘rgazmalar yakunlarida **426 nafar** g‘oliblar aniqlanib, ulardan **344 nafari** jami **678 mln so‘m** miqdorida **bir martalik pul mablag‘lari** bilan, **81 nafari qimmatbaho esdalik sovg‘alari** hamda tarqatma materiallar bilan rag‘batlantirildi. |
| 38. | 16-ilova 31.1-band. | Innovatsion rivojlanish agentligi huzurida “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” ilmiy-texnik kengashini tuzish.<br>1. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasidagi ilmiy loyihalarni ko‘rib chiqish maqsadida ilmiy-texnik kengashlar faoliyatini tahlil qilish.(2025-yil mart- | 25.04.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Vazirlik tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi sohasidagi ilmiy loyihalarni ko‘rib chiqish maqsadida ilmiy-texnik kengashlar faoliyatini tahlil qilindi.<br>**b)** Tahlil natijalariga ko‘ra vazirlik huzurida bugungi kunga qadar 19 ta kengash faoliyat yuritib “Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | aprel) | | yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid ilmiy-texnik kengash tarkibida ekologiya va iqlim o‘zgarishlari sohasidagi mutaxassislar faqat 2 dona ekanligini inobatga olib yangi ilmiy texnik kengash tuzish ehtiyoji tug‘ildi. |
| 39. | 16-ilova 31.2-band. | Innovatsion rivojlanish agentligi huzurida “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” ilmiy-texnik kengashini tuzish.<br>2. Innovatsion rivojlanish agentligi huzurida “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” ilmiy-texnik kengashini tuzish va uning tarkibini tasdiqlash.(2025-yil aprel) | 25.04.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>**a) Farmon va Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha batafsil amalga oshirilgan ishlar (faoliyat):**<br>Vazirlikning 2025-yil 27-yanvardagi 04/17-213-sonli XDFU xati bilan tegishli vazirlik va idoralarga mazkur yo‘nalishdagi mutaxassislar so‘rab xat yuborildi. Taqdim qilingan nomzodlar orasidan 21 nafar a’zodan iborat “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” yo‘nalishidagi kengash tarkibi shakllantirildi.<br>***Asos:*** *Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 14-martdagi 98-son buyrug‘i bilan “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” yo‘nalishidagi ilmiy-texnik kengash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.*<br>**b)** Tashkil etilgan “Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi” yo‘nalishidagi kengash tomonidan 12 ta yig‘ilish o‘tkazildi. |
| 40. | 16-ilova 32.1-band. | Ijtimoiy soha obyektlarini chiqindi konteynerlari bilan ta’minlash.<br>Mexanizm: 1. Maktabgacha ta’lim, maktab, texnikumlar, sog‘liqni saqlash muassasalarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish va chiqindi konteynerlariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash.(2025-yil avgust) | 25.08.2025 | *I. AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA ERISHILGAN AMALIY CHORA-TADBIRLAR TEZIS SHAKLIDAGI TAHLILI:*<br>a) Mazkur topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida ishchi guruhi shakllantirildi;<br>– ishchi guruh tomonidan respublikadagi kasbiy ta’lim tashkilotlarida 595 ta sanitar-gigiyena shaxobchalaridagi mavjud 570 dona chiqindi konteynerlari to‘liq xatlovdan o‘tkazildi;<br>– 1593 dona chiqindi konteynerlariga bo‘lgan talab aniqlandi.<br>– 1023 dona sotib olinadigan chiqindi konteynerlariga bo‘lgan ehtiyoj aniqlandi. |